
Qo'shtepa tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi ogohlantiradi!

Hurmatli fuqarolar!

Yashash xonadonlari hamda ish joylarida foydalanilayotgan gaz (ikki konturli isitish qozonlari, pechlar, gaz plitalari) va elektr istish jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiling. Nosoz va nostdandart isitish jihozlaridan foydalanmang.

Yoqilgan pechlarni nazorasiz qoldirmang. Isitish pechlari dudbo'ronlari sozligiga e'tibor bering. Har qanday nosozliklarni sezganingizda mutaxassislar bilan bog'lanib, bartaraf etish choralarini ko'ring.

Unutmang, bir qarashda oddiy tuyulgan xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik yong'inlar, is gazidan zaharlanish hamda gaz havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq baxtsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin!

O'zingiz va oila a'zolaringiz hayotini xavf ostiga qo'ymang!

Yong'in sodir bo'lganda 101 qisqa raqamiga zudlik bilan xabar bering.

Qo'shtepa tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi.

2024-12-17 12:34:57